

FARG‘ONA VILOYATIDA QANDLI DIABET 2-TUR KASALLIGIDA O‘TKIR VA SURUNKALI ASORATLARNING TARQALGANLIGINI O‘RGANISH

Rahmatullayeva Guljahon Ulug'bek qizi

FJSTI Endokrinologiya yo'nalishi bo'yicha 2-kurs magistri

Karimova M.M

Ilmiy rahbar: T.f.n

Annotatsiya: Qandli diabet 2-turi keng tarqalgan surunkali kasallik bo‘lib, o‘tkir va surunkali asoratlarning rivojlanishi bilan kechadi. Ushbu asoratlarning bemorlarning mehnat qobiliyati va hayot sifatini pasaytiradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi Farg‘ona viloyatida qandli diabet 2-turi bilan og‘rigan bemorlarda o‘tkir va surunkali asoratlarning tarqalganlik darajasini o‘rganishdan iborat. Tadqiqot natijalari diabetik asoratlarning yuqori uchrashini ko‘rsatdi va ularni erta aniqlash hamda oldini olish muhimligini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: qandli diabet 2-turi, o‘tkir asoratlarning, surunkali asoratlarning, Farg‘ona viloyati, diabetik nefropatiya.

Kirish

Qandli diabet 2-turi (QD2) hozirgi kunda global sog‘liqni saqlash tizimi uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Kasallikning asosiy xavfi uning uzoq muddatli va ko‘pincha qaytarilmas asoratlarning bilan kechishidir. O‘tkir asoratlarning — gipoglikemiya va giperqlikemik holatlar bilan, surunkali asoratlarning esa yurak-qontomirkasalliklari, diabetik nefropatiya, retinopatiya va neyropatiya bilan namoyon bo‘ladi. Hududiy darajada diabet asoratlarning tarqalishini o‘rganish profilaktik choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqot Farg‘ona viloyatida joylashgan davolash-profilaktika

muassasalarida kuzatuvda boʻlgan qandli diabet 2-turi bilan ogʻrigan 120 nafar bemor misolida oʻtkazildi. Bemorlarning yoshi 40–70 yosh oraligʻida boʻlib, kasallik davomiyligi 5 yildan ortiqni tashkil etdi. Klinik, laborator va instrumental tekshiruvlar asosida oʻtkir va surunkali asoratlar aniqlanib, tahlil qilindi.

Natijalar

Tadqiqot davomida bemorlarda quyidagi asoratlar aniqlandi: Asorat turi Bemorlar soni Ulushi (%)

- Gipoglikemiya 28 23,3
- Giperglikemik holatlar 19 15,8
- Diabetik nefropatiya 46 38,3
- Diabetik retinopatiya 41 34,1
- Diabetik neyropatiya 52 43,3
- Yurak-qon tomir asoratlari 57 47,5

Natijalarga koʻra, surunkali asoratlar oʻtkir asoratlarga nisbatan koʻproq uchrashi aniqlandi.

Muhokama

Olingan maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, Fargʻona viloyatida qandli diabet 2-turi bilan ogʻrigan bemorlarning katta qismida surunkali asoratlar shakllangan. Bu holat kasallikning kech aniqlanishi, glyukemik nazoratning yetarli darajada olib borilmasligi va profilaktik tadbirlarning sustligi bilan izohlanadi. Oʻtkir asoratlar esa asosan dori vositalarini notoʻgʻri qabul qilish yoki ovqatlanish rejimiga rioya qilmaslik bilan bogʻliq.

Xulosa

Fargʻona viloyatida qandli diabet 2-turi bilan ogʻrigan bemorlarda surunkali asoratlar yuqori darajada uchrashi aniqlandi. Diabetik neyropatiya va yurak-qon tomir asoratlari yetakchi oʻrinni egallaydi. Kasallik asoratlarini kamaytirish uchun erta tashxis, muntazam nazorat va kompleks profilaktik chora-tadbirlarni

kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amerika Diabet Assotsiatsiyasi. Qandli diabetni boshqarish bo'yicha klinik tavsiyalar, 2024.
2. Yevropa Diabetologiya Assotsiatsiyasi. Diabet asoratlarini oldini olish bo'yicha qo'llanma, 2023.
3. Braunvald E. Yurak-qon tomir kasalliklari. Elsevier, 2022.